

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

№4

2025

APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
Российский экономический университет
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ





*Elektron nashr,
516 sahifa, aprel, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modelashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti

08.00.01 - Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 - Makroiqtisodiyot
08.00.03 - Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 - Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 - Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 - Ekonometrika va statistika
08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 - Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 - Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 - Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 - Marketing
08.00.12 - Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 - Menejment
08.00.14 - Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 - Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 - Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 - Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan
"Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan
milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha
"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

M u a s s i s: "Tadbirkor va ishbiarmon" MChJ

H a m k o r l a r i m i z:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Роль искусственного интеллекта в управлении финансовым потенциалом предприятий.....	10
Юсупов Файзулла Якубович	
Erkin iqtisodiy zonalar faoliyatini moliyaviy vositalar orqali takomillashtirish: "Navoiy" EIZ misolida.....	20
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Davlat xaridlari jarayonini boshqarish va nazorat qilishning muhim jihatlari.....	26
Xodjamqulov Shahboz Sherali o'g'li	
Oliy ta'lim tizimini baholash: milliy model va global standartlar.....	31
Hakimov Hakimjon Abdullo o'g'li, Hakimova Gulnoza Abdulloyevna	
Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishda xorij tajribasi.....	37
Qodirov Iskandar Alisher o'g'li	
Механизмы адаптации рынка труда к новой модели экономического роста: теория, практика и цифровые решения.....	41
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
Xorazm viloyati eksport strategiyasini takomillashtirishning iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlari.....	50
Fozil Xolmurotov	
Suv resurslarini tejashda aqli sug'orish tizimlarining ahamiyati.....	62
Abdullayev.A., Karimov Anvarjon Muqumjonovich	
To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati raqobatbardoshligini oshirishning marketing vositalari.....	68
Satvoldiyev Ulugbek Kamilovich	
The current state and development trends of innovative activity in agriculture.....	72
Aytmuratova Miyrigul Zhalgasovna	
Методология оценки инновационной деятельности.....	78
Алиева Эльнара Аметовна	
Yashil iqtisodiy o'sishda raqamli iqtisodiyot va tadbirkorlikning integratsiyalashuvi.....	86
Xodjamov Asliddin O'ktam o'g'li, Maqsudov Bunyod Abdusamat o'g'li	
Tijorat banklari aktivlarini diversifikatsiya qilish yo'llari tahlili.....	92
Abdurazzoqov Abdualim Abdujabbor o'g'li	
Направления повышения эффективности средств, направляемых на обеспечение занятости населения и сокращение бедности.....	97
Маликов Аuezхан Жорабекович	
O'zbekiston uy xo'jaliklarining farovonlik koeffitsiyenti: blackorby va donaldson yondashuvi asosida tahlili.....	106
Boltayeva Dilafza Jumaqulovna	
O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalarning o'zgarish dinamikasi.....	114
Qo'shbaqov Aybek Shovqiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, davlat iqtisodiy siyosatini takomillashtirish va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning samaradorligini oshirish yo'llari.....	123
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich	
Yangi o'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari.....	132
Tojiyev Javlonbek Rustamovich	



Mulkchilik shakliga ko'ra tijorat banklarida depozitlarining amaldagi holati tahlili	138
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Bandlikni ta'minlashda moliyaviy mexanizmlarning o'rni va ahamiyati	151
Karimjonov Muhammadrasul To'liqinjon o'g'li	
Mustaqil direktorlar ulushi, nomoliyaviy axborotlarning oshkor qilinishi va dividend siyosatining kapital qiymatga kompleks ta'siri	159
Urinov Bobur Nasilloevich	
Turizm orqali ish o'rinlarini yaratish va bandlik muammosini kamaytirish imkoniyatlari	167
Kaxramanova Sevd Shamsiddin qizi	
Kam quvvatli gidroelektr stansiya uchun mos bo'lgan invertor, reduktor, akkumulyator va generatorni tanlash	173
Xamrayev Og'abek Oybek o'g'li, Davletov I.Y.	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmoqlarini ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslari	182
Ibragimova Gulnoza Sayidmuradovna	
Terminologiya va ilmiy terminologiya xususida	188
Ruziyeva Gulnoz Temirqulovna	
O'zbekiston Respublikasida innovatsiyalarni tashkil etish va moliyalashtirish yo'llari	192
Ramazonov Javohir Bekzod o'g'li	
Bazalt chiqindi toshqol asosidagi kam suv talabchan sementlarning samaradorligini oshirish	197
Babayev Sultonbek Sunnat o'g'li	
Qashqadaryo qayta tiklanuvchi energiya manbalarining samaradorligini turli yondashuv asosida baholash	203
Omonova Sitara Zafar qizi, Utayev Sobir Achilivich	
Tilshunoslikning mexanika muhandisligi terminlari xususida	208
Mansurova Nafisa Qamariddinovna	
"Chizma geometriya va perspektiva" fanining arxitektura bilimlari tizimidagi roli	213
Yusubjonov Jonibek Farxod o'g'li	
Geodezik plan olishning avtomatlashgan usullari	219
Mamajonova Nodira Alisher qizi	
Zamonaviy arxitektura interyer dizaynida milliy grixva islomiy naqshlar uyg'unligi	225
Qo'chqarov Baxodir O'lmasovich	
Qurilishda mehnat unumdorligini oshirish va uni prognozlashning nazariy asoslari	230
Abduvaliyev Bekzod Muhiddin o'g'li	
Qishloq aholi hududlaridagi zamonaviy innovatsion o'zgarishlarining o'rta ta'lim maktablari tuzilishidagi ta'siri	235
Abdurahmonov Olimjon Obboqul o'g'li	
Seysmik hududlarda qurilish konstruksiyalarini to'g'ri tanlash	241
Egamberdiyeva Shaxnoza Abdurashidovna	
Arixiy yodgorliklarning me'moriy-rejaviy, konstruktiv va badiiy bezak yechimlari	251
Sotvoldiyev Azamatjon Akramjon o'g'li	
Xitoy va O'zbekiston tajribasi asosida soliq to'lovchilar reytingi tizimi orqali fiskal intizomni mustahkamlash	255
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
Turizmga investitsiyalar iqtisodiyotimizga ijobiy ta'siri etuvchi omillari sifatida	268
Ayubov Ilyos Ilxomovich, Tursunov Qosimbek Nodirovich	



Problems of determining the informativeness of input and output parameters in object management	275
Turapov Ulugbek Urazkulovich	
Tijorat banklari faoliyatiga foiz riskining ta'siri: ilmiy-nazariy asoslar va amaliyot tahlili	280
Turdiyev Abdulhakim Qulbazarovich	
Zamonaviy moy filtrlarining dvigatel ishlash resursini oshirishiga ta'siri.....	290
Mirzakarimov Rustambek Xusanboy o'g'li	
Qayta tiklanadigan energiya manbalari: zamonaviy global tendensiyalar va O'zbekiston uchun perspektivlar	295
Bozarov Elyor Boboqulovich, Rustamova Sarvinoz Azizbek qizi	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda investitsiyaning ahamiyati.....	300
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
Strengthening and enhancing the export potential of industrial enterprises for sustainable growth.....	305
Researcher of Tashkent State University of Economics	
Davlat tashkilotlarining bitiruvchilarga bo'lgan ehtiyoji va talablari.....	310
Daminova Barno Esanovna, Bozorova Irina Jumanazarovna, Pardayeva Muqaddas Zafar qizi	
Erkin iqtisodiy hududlar soliq rejimlarini takomillashtirishning xorij tajribasi.....	320
Boltayev Jo'rabek Yusofovich	
Tabiiy va sun'iy tolalar sanoatini diversifikatsiya qilish orqali investitsion jozibadorlikni oshirish.....	325
Raximov Furqat Jalalovich	
Maishiy kimyo tovarlari B2B segmentida omnichannel marketing strategiyalarining qo'llanishi	331
Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
O'zbekistonda kichik biznes faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari	338
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	
Task mapping and job scheduling implications of fdi inflows and governance quality metrics	343
Nilufar Zikirullaeva Dilmurod qizi	
Yangi O'zbekiston savdo-iqtisodiy munosabatlari rivojlanishida xizmatlar eksportining ahamiyati	350
Eshanqulov Baxodir Abduraxmon o'g'li	
Budjet daromadlarini shakllantirishda yirik soliq to'lovchilarning tutgan o'rni	357
Tohirov Shuhrat Niyoz o'g'li	
Davlat maqsadli jamg'armalari resurslarini boshqarish va samarali foydalanish yo'nalishlari.....	361
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlik subyektlari amaliy holati, sohani rivojlantirish asoslari	365
Ortiqov Ulug'bek Akrombek o'g'li	
Korxonalarda moliyaviy instrumentlarning hisobi va audit masalalari	371
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklarida moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha zamonaviy tendensiyalar	375
Latipova Lola Ilhomovna	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish orqali soliq to'lovchilar faoliyatini muvofiqlashtirish	380
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
Transformatsiyalash jarayonida tijorat banklari likvidligini oshirishning nazariy asoslari	385
Poyonov Bobir Bekturod o'g'li	



The importance of implementing international accounting standards in uzbekistan	393
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Ikki o'lchovli geofizik signallarni raqamli ishlashda XAAR tez o'zgartirish algoritmlari.....	403
Ibragimov Sanjarbek Salijanovich, Mullajonov Baxodirjon Arabboyevich	
Turizm infratuzilmasi va xizmat sifatini oshirish maqsadida yangi turistik yo'nalishlar va imkoniyatlar yaratish chora tadbirlari.....	410
Sindarov Sherzod Egamberdiyevich, Xakimov Zoxid Norbo'tayevich, Yusupov Muxammadali Soxib o'g'li, Ro'zimatov Sanjarbek Qosimjon o'g'li	
Korporativ boshqaruvda byudjetdan tashqari mablag'lar samaradorligini oshirish.....	420
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
Enhancing labor productivity in industrial enterprises of developed countries: experiences and strategies	426
Abduxakimova Farangiz Sidikjon kizi	
Raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali "Olmaliq KMK" ajda innovatsion loyihalarni boshqarish samaradorligini oshirish yo'llari.....	434
Inamova Farida Usmanjanovna	
Methodological problems of accounting of fixed assets	439
Kholbekov Rasul Olimovich	
Необходимость платежной системы.....	446
Сайфиддинов Илхом Файзиддинович	
Зеленое ipro как новый инструмент финансирования	451
Шахзод Сайдуллаев	
Инструменты фондового рынка в международной практике повышения инвестиционной привлекательности бизнеса	459
Юлдуз Усманова	
Модели устойчивого развития туризма: международный опыт и возможности адаптации в узбекистане.....	471
Сальникова Елена Александровна	
Внедрение антикоррупционных стандартов iso в узбекистане	478
Исмаилов Баходир Исламович, Зокиров Саидакмал Баходир угли	
Global moliyaviy markazlarni baholash mexanizmi	483
Sharipova Shaxinabonu Orif qizi	
Трансформация банковского сектора узбекистана под влиянием цифровых технологий.....	488
Захарова Ирина Борисовна, Непейвода Андрей Николаевич	
Uy-joy fondini qulayligini modernizatsiya va rekonstruksiya orqali oshirish imkoniyatlari.....	493
Inoyatova Durdona Shoxaydarovna	
Влияние технологии блокчейн на банковскую сферу	500
Амонова Хафиза	
Buxoro viloyatida suv tanqisligi sharoitida resurs tejamkor agrotexnologiyalar asosida agrobiznesni barqaror rivojlantirish masalalari	504
Ro'ziyev Sobirjon Samatovich, Saidova Firuza Kamolovna	
O'zbekiston respublikasida demografik dividend olish imkoniyatlaridan oqilona foydalanish metodlari	510
Sharipov Sherzod Shavkatovich	

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DEMOGRAFIK DIVIDEND OLIISH IMKONIYATLARIDAN OQILONA FOYDALANISH METODLARI

Sharipov Sherzod Shavkatovich

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida demografik dividenddan oqilona foydalanish masalalari IMRAD uslubida tahlil qilinadi. Tadqiqotda mehnatga layoqatli yoshlar ulushining ortishi sharoitida ta'lim, bandlik va iqtisodiy faollikning oshirilishi orqali demografik dividenddan samarali foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi. Metodologik yondashuv sifatida statistik tahlil, solishtirma usul va kontent tahlil metodlaridan foydalanilgan. Natijalar yoshlar siyosati, raqamli texnologiyalarni joriy etish va zamonaviy kasblarga moslashuv orqali iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'rsatadi. Muallif demografik dividendni ro'yobga chiqarish uchun kompleks davlat yondashuvi va inson kapitaliga investitsiyalar muhimligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: demografik dividend, yoshlar salohiyati, mehnatga layoqatli aholi, iqtisodiy faollik, ta'lim va bandlik, raqamli texnologiyalar, inson kapitali, davlat siyosati, innovatsion rivojlanish.

Abstract: This article explores the opportunities for rational utilization of the demographic dividend in the Republic of Uzbekistan, structured in accordance with the IMRAD model. As the share of the working-age population grows, the study examines strategies to enhance youth participation in education, employment, and economic activity. Methodologically, statistical analysis, comparative techniques, and content analysis are employed. The results indicate that youth-focused policies, digital technology integration, and adaptation to modern professions positively contribute to economic growth. The paper argues for a comprehensive state approach and greater investment in human capital to fully realize the demographic dividend.

Keywords: demographic dividend, youth potential, working-age population, economic activity, education and employment, digital technologies, human capital, government policy, innovative development.

Аннотация: В статье проведён анализ возможностей рационального использования демографического дивиденда в Республике Узбекистан на основе подхода IMRAD. В условиях увеличения доли трудоспособного населения рассматриваются перспективы повышения участия молодежи в образовании, занятости и экономической активности. Методологически применены статистический анализ, сравнительный и контент-анализ. Результаты демонстрируют положительное влияние молодежной политики, цифровизации и адаптации к современным профессиям на экономическое развитие. Автор обосновывает необходимость комплексного государственного подхода и инвестиций в человеческий капитал для реализации демографического потенциала.

Ключевые слова: демографический дивиденд, молодежный потенциал, трудоспособное население, экономическая активность, образование и занятость, цифровые технологии, человеческий капитал, государственная политика, инновационное развитие.

KIRISH

Bugungi globallashuv va tez sur'atlarda kechayotgan texnologik o'zgarishlar davrida demografik resurslardan oqilona foydalanish har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi hamda uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, mehnatga



layoqatli yoshlar ulushi yuqori bo'lgan davlatlar – xususan, O'zbekiston Respublikasi uchun demografik dividenddan samarali foydalanish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Demografik dividend – bu aholi tarkibida ishlab chiqaruvchilarning (ya'ni mehnatga layoqatli aholining) iste'molchilarga nisbatan ortishi natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy o'sish imkoniyatidir. Biroq ushbu imkoniyat o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi – uni ro'yobga chiqarish uchun yosh avlodga sifatli ta'lim berilishi, ularning zamonaviy kasblar, raqamli texnologiyalar va innovatsion ko'nikmalarga ega bo'lishi, shuningdek, barqaror bandlik bilan ta'minlanishi zarur.

Bundan tashqari, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosat, mehnat bozorining moslashuvchanligi, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasining kuchaytirilishi ham demografik dividenddan to'laqonli foydalanish uchun zaruriy shart hisoblanadi.

Jahon miqyosidagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, bugungi kunda yoshlar orasida ishlamaydigan, o'qimaydigan va kasbiy tayyorgarlikdan o'tmaganlarning ulushi 23,3 foizga yetgan bo'lib, bu so'nggi 15 yil ichidagi eng yuqori ko'rsatkich hisoblanadi. Mutaxassislar fikriga ko'ra, ushbu toifadagi yoshlarning salbiy psixologik kechinmalari kelajakdagi iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlariga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, yosh ayollar o'rtasida ish bilan bandlik darajasi yosh erkaklarga nisbatan ancha past. 2022-yil holatiga ko'ra, dunyoda yosh ayollarning atigi 27,4 foizi ish bilan band bo'lsa, yosh erkaklar orasida bu ko'rsatkich 40,3 foizni tashkil etgan. Bu esa yosh erkaklarning ish topish imkoniyati ayollarga nisbatan deyarli bir yarim barobar yuqoriligini anglatadi. Gender tafovutlari so'nggi 20 yil davomida sezilarli darajada o'zgarmagan: o'rta daromadli davlatlarda bu farq 17,3 foizni, yuqori daromadli mamlakatlarda esa 2,3 foizni tashkil etmoqda.

Demografik vaziyat murakkab ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, tug'ilish, o'lim, tabiiy o'sish va migratsiya kabi omillarda o'z aksini topadi. So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ko'rsatmoqdaki, aholining yosh tarkibidagi o'zgarishlar ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodiy o'sishning jadallashuvida muhim rol o'ynamoqda.

“Demografik dividend” tushunchasi aynan ana shu demografik o'zgarishlardan kelib chiqadigan iqtisodiy o'sish salohiyatini anglatadi. Tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlarining pasayishi natijasida mehnatga layoqatli yoshdagi aholining ulushi ortadi, natijada qaramoqdagilar sonining kamayishi iqtisodiy faollik va sof daromad oshishiga zamin yaratadi. Bu esa ishlab chiqarish, iste'mol va investitsiyalar hajmini kengaytirish orqali makroiqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Demografik dividendga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlarning asosida mehnatga layoqatli va layoqatsiz yoshdagi aholi sonining nisbatini ifodalovchi demografik bosimni tahlil qilish yotadi. Biroq mamlakatdagi iste'mol va daromadlarning o'rtacha darajasi haqidagi ma'lumotlarni aholi tarkibi bilan solishtirish orqali yosh guruhlari kesimida bu dividendni yanada chuqurroq tahlil qilish imkoniyati mavjud. Bunday yondashuv orqali har bir yosh toifasidagi iste'molchilarni ta'minlash uchun zarur bo'lgan mehnat resurslari sonini aniqlash, shuningdek, sof transferlar hajmini aniqroq belgilash mumkin bo'ladi.

Sh.G'. Akramovaning fikricha, O'zbekiston sharoitida aholi sonining ortib borayotgani, ayniqsa yosh-jins tarkibi nuqtayi nazaridan “demografik imkoniyatlar darchasi” deb ataluvchi maqbul holat shakllanayotganligi, mamlakat iqtisodiy o'sishiga turtki bo'ladigan muhim omil sifatida ko'rilishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, bandlik, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalarida muvofiqlashtirilgan strategik siyosat yuritilishini talab etadi. Aynan ushbu davrda inson kapitaliga yo'naltirilgan investitsiyalar kelgusida ijobiy natijalar, xususan, demografik dividenddan foydalanish imkoniyatini kengaytiradi.

So'nggi yillarda demograf olimlar tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, har qanday mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini demografik o'zgarishlarni inobatga olmasdan baholash to'liq tasavvur bermaydi. Aholining yosh tarkibi, mehnatga layoqatli qatlamning nisbiy ustunligi va mehnat bozori bilan integratsiyasi kabi omillar iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir qiluvchi muhim faktorlar sirasiga kiradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar asosan O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon banki hamda BMTning demografik hisobotlari asosida olindi. Tahlil qilishda taqqoslama usul, kontent tahlil va dinamik ko'rsatkichlar asosida baholash yondashuvi qo'llanildi. Olingan ma'lumotlar yosh tarkibi, mehnatga layoqatlilik va iqtisodiy faollik ko'rsatkichlari bilan bog'liq indikatorlar orqali tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Demografik dividend" atamasi iqtisodiyotda aholi tarkibining yoshga oid tuzilmasida yuz berayotgan o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, birinchi navbatda, mehnatga layoqatli yoshdagi aholining ulushi mehnatga layoqatsiz yosh qatlamdan yuqori bo'lgan vaziyatda yuzaga keladigan iqtisodiy o'sish salohiyati sifatida ta'riflanadi. Bunday demografik holat ijobiy iqtisodiy natijalarga erishish uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadi. Ammo bu salohiyat faqatgina o'z-o'zidan yuzaga chiqmaydi – uni ro'yobga chiqarish uchun maqbul iqtisodiy siyosat, uzoq muddatli strategik rejalashtirish hamda inson kapitaliga yo'naltirilgan katta hajmdagi investitsiyalar zarur.

Xususan, yoshlarga qaratilgan investitsiyalar ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik va innovatsion muhitni shakllantirish orqali demografik dividendning real iqtisodiy samaradorlikka aylanishiga xizmat qiladi. Biroq, bu salohiyatni to'liq namoyon qilish uchun davlatda mustahkam institutsional asos – aniq me'yoriy-huquqiy baza, sog'lom mehnat bozori muvozanati va zamonaviy kasb-hunar tizimi faoliyat yuritishi talab etiladi.

Demografik dividenddan foyda olish bosqichma-bosqich jarayon hisoblanadi. Dastlabki shart sifatida demografik o'tish amalga oshirilishi kerak. Demografik o'tish deganda, tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlarining yuqori darajadan past darajaga pasayishi, natijada aholi tarkibida mehnatga layoqatli yoshlar salmog'ining ortishi tushuniladi. Bu jarayon rivojlanayotgan mamlakatlar uchun iqtisodiy "imkon oynasi"ni ochadi.

Demografik dividenddan olinadigan iqtisodiy foyda qisqa muddatli emas – u 50 yil va undan ortiq davom etishi mumkin. Biroq bu jarayon ham o'ziga xos bosqichlarga ega: tug'ilish ko'rsatkichlarining uzoq davom etuvchi pasayishi vaqt o'tgan sayin mehnat resurslarining o'sishini sekinlashtiradi. Shu bilan birga, sog'liqni saqlash tizimida yuz berayotgan taraqqiyot umr ko'rish davomiyligining ortishiga olib keladi, bu esa kekxa yoshdagi aholi ulushining ortib borishiga sabab bo'ladi. Natijada, vaqt o'tishi bilan demografik dividendning o'rnini demografik bosim egallashi mumkin, bu esa makroiqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikka muayyan xavf soladi.

Agar har bir davlat o'z demografik o'zgarishlarini strategik siyosat orqali boshqarsa, quyidagi to'rt asosiy iqtisodiy manfaatni olish imkoniyatiga ega bo'ladi:

Ishchi kuchining ko'payishi – mehnatga layoqatli aholining ortishi iqtisodiy ishlab chiqarish salohiyatini kengaytiradi.

Ayollar bandligining oshishi – ayollarni mehnat bozoriga jalb etish orqali ularning iqtisodiy faolligi va oilaviy daromadlari oshadi.

Jamg'armalarning ortishi – farzandlar sonining kamayishi oilalarning iste'moldan ko'ra jamg'arishga moyilligini oshiradi, bu esa investitsiya manbalarini kengaytiradi.

Inson kapitaliga sarmoya – har bir bola yoki o'smirlarga ko'proq resurs ajratish imkoniyati paydo bo'lib, bu kelgusida ixtisoslashgan, malakali va innovatsion fikrlovchi yoshlar avlodining shakllanishiga xizmat qiladi.

1-jadval. Demografik dividenddan foydalanish yo'nalishlari, tahlil va istiqbolli tomonlar.

Demografik dividend foydasi yo'nalishi	Tahlil	Istiqbolli tomoni
Ishchi kuchining ko'payishi	Mehnatga layoqatli aholining ko'payishi iqtisodiy o'sishga turtki beradi.	Ishlab chiqarish hajmining ortishi va YAIMning o'sishi



Ayollar bandligining oshishi	Ayollarni mehnat bozoriga keng jalb etish orqali iqtisodiy faollik oshadi.	Gender tengligini ta'minlash va oilaviy farovonlikka hissa qo'shadi
Jamg'armalarning ortishi	Farzandlar soni kamayishi oilaviy jamg'armalarning ortishiga olib keladi.	Moliyaviy barqarorlik va investitsion muhit yaxshilanadi
Inson kapitaliga sarmoya	Har bir bolaga ajratilayotgan resurslar ko'payib, sifatli ta'lim va sog'liq bilan ta'minlanadi.	Innovatsion va raqobatbardosh yosh kadrlar avlodi shakllanadi

Yuqorida keltirilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, demografik dividend – bu vaqtinchalik, lekin katta iqtisodiy imkoniyat bo'lib, undan to'laonli foydalanish uchun kompleks yondashuv zarur. O'zbekiston sharoitida bu imkoniyatni to'liq ishga solish uchun davlat siyosatini yoshlar salohiyatini ro'yobga chiqarishga, bandlikni kengaytirishga, raqamli iqtisodiyotga mos kadrlar tayyorlashga va ayollar iqtisodiy faolligini oshirishga yo'naltirish muhim hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan demografik siyosat faqatgina umumiy strategik yondashuv emas, balki aniq maqsadli demografik chora-tadbirlar orqali amaliyotga tatbiq etilgan taqdirdagina o'z natijasini beradi. Ayniqsa, tug'ilish darajasi va umumiy aholi o'sish sur'atlarining bosqichma-bosqich pasayib borayotgan sharoitda, mavjud demografik imkoniyatlardan to'laonli foydalanish – ya'ni demografik dividendni samarali shakllantirish va undan foyda olish – mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim omilga aylanadi.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

Demografik siyosatni raqamli tahlillarga asoslash – yosh tarkibi, mehnatga layoqatlilik darajasi va migratsiya tendensiyalarini hisobga olgan holda aniq prognozlash va siyosiy qarorlar qabul qilish zarur.

Yoshlar salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun ta'lim va bandlikni uyg'unlashtirish – kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim va ishlab chiqarish sektori o'rtasida uzviy integratsiyani kuchaytirish lozim.

Ayollar mehnat faolligini rag'batlantirish – ayniqsa, qishloq joylarida bandlik imkoniyatlarini kengaytirish orqali gender tengligini amaliyotda ta'minlash muhim.

Inson kapitaliga sarmoya hajmini oshirish – sog'liqni saqlash, raqamli savodxonlik va zamonaviy kasblarga tayyorlov yo'nalishlari bo'yicha davlat va xususiy sektor hamkorligini kengaytirish kerak.

Demografik dividend monitoringini joriy etish – har yili demografik dividend ko'rsatkichlarini baholab borish, ularni davlat strategiyalariga integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir.


Shu tarzda, demografik o'zgarishlarni chuqur tahlil qilish va ularni strategik yondashuv bilan boshqarish orqali O'zbekiston Respublikasi o'zining demografik dividendidan samarali foydalana oladi va iqtisodiy o'sishning sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Зокирова Н.К., Абдурахманова Г., Сагидуллин Ф.Р. Трансформация форм занятости в инновационном развитии // International Scientific Review. 2020. № LXX. – С. 24–28.
2. Браян А. Вторая экономика [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.obs.ru/article/1887/>.
3. Алексеев И.В. Информационное обеспечение системы управления франчайзинговыми предприятиями / И.В. Алексеев, Е.В. Рыбокене // Экономические и гуманитарные науки. – 2015. – № 1 (276). – С. 105–110.
4. Калужский М.Л. Маркетинговые сети в электронной коммерции: институциональный подход / М.Л. Калужский. – М.; Берлин: Директ-Медиа, 2014. – 402 с.



5. Кунгуров Д. Россию ждет цифровая экономика. Высокие технологии способны реанимировать слабую экономику [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://utro.ru/articles/2016/12/04/1307336.shtml>.
6. Otakuziyeva Z.M. Formirovaniye, faktory i usloviya razvitiya tsifrovoy ekonomiki v Uzbekistane // Biznes-Ekspert – Toshkent, 2020. – № 6 (150). – В. 106–113. (08.00.00. № 3).
7. Otakuziyeva Z.M. Razvitiye i osobennosti elektronnoy zanyatosti v RUz // Ekonomika i obrazovaniye – Toshkent, 2020. – № 5. – В. 171–174. (08.00.00. № 11).



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100